

SOCIAL WORK FOR CHILDREN

Isoqjon Negmatov

Named after Sharof Rashidov Samarkand State University

Sociology and Social Work Chair of the Department, Associate Professor

ANNOTATION

The article makes some comments on the fact that a social worker working with children deals with a wide range of district issues. In particular, the protection of a child who has been abused and neglected among them, the placement of children left without parental care (for example, adoption, foster care for children); support the child in various critical situations in the family (for example, adoption, foster care for children); child support services in various critical situations in the family (for example, relocation, death of a family member, natural disaster, etc.). It has also been suggested that social work with children is one of the most difficult tasks.

Keywords: social work, children, youth, disabled, mental illness, parents, needy families, law, freedom and liberty, physical, mental, spiritual, moral and social development, preventive health care, family size planning, educational work in the field, development of services.

INTRODUCTION

Ijtimoiy ishning asosiy maqsadi xalqaro hujjatlarda ham belgilab berilgan. Ular orasida ijtimoiy chetlatilgan, ajratilgan insonlar va jamiyat hayotida xavfli guruh insonlarini birlashtirish; o'zlarini mustaqil himoya qila olmaydigan insonlar yoki insonlar guruhlari (bolalar, yoshlar, nogironlar, psixik kasalliklari bor insonlar va shu kabilar)ga yordam ko'rsatish va himoyalash; xizmatlar va resurslarni olishni o'zlari amalga oshira olmaydigan insonlar yoki insonlar guruhlarga yordam ko'rsatish va o'qitish kabilar mavjud.

Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ish xodimi keng qamrovli turli tuman muammolar bilan shug'ullanadi. Xususan, ular orasida shafqatsiz va e'tiborsiz munosabatlarni boshdan kechirgan bolani himoyalash; ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirish (misol uchun, farzandlikka olish, bolalarga foster vasiylik qilish); oilada turli keskin vaziyatlarda bolaga yordam ko'rsatish (misol uchun, turar joyini o'zgartirish, oila a'zosining vafoti, tabiiy ofatni boshdan kechirish va boshqalar); nogiron bolalar va ularning oilalari bilan ishlash; xulqida qiyinchiliklar bo'lgan yoki ijtimoiy zararli axloqli bolalar bilan ishlash asosiy ishlar hisoblanadi. Shunday qilib, bolalar ijtimoiy ish xodimi turli xildagi muammolar bilan ishlaydi. Odatda, mijozning bir muammosi bilan shug'ullanib borar ekan ijtimoiy ish xodimi yana bir qator aloqador muammolarga duch keladi. Misol uchun, bolalarga e'tiborsizlik ko'pincha ota-onasi (yoki ota-onasidan birining) ichkilikbozlikka berilganligi bilan bog'liq bo'ladi; bolaning murakkab xulqi aslida oilaviy, ko'pincha er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning buzilganligi sababli bo'ladi va shu kabilar. Shunday holatlarga duch kelib, o'z mijozlariga ularni hal qilishda yordam ko'rsatib bolalar va oilalar bilan ishlaydigan ijtimoiy xodimlar, birinchi navbatda, bolaning manfaatlarini ta'minlashga amal qilib boradilar.

Dunyoda bolalarni himoya qilish degan tushuncha bor. Albatta, buni global miqyosdagi umuminsoniy masala sifatida qabul qilamiz. Ya'ni ochlikdan, ommaviy epidemiyalardan, urush harakatlari oqibatlaridan, axloqsiz zo'ravonliklardan himoya qilishga xalqaro tashkilotlardan

tortib har bir davlat va har bir sog'lom fikrlovchi kishilarni ishidir. Negaki, bolalarni himoya qilish keng qamrovli va dolzarb masalalar hisoblanadi. Bu borada zamonaviy dunyoda jahon hamjamiyati bolalarni ijtimoiy himoya qilish, bolalik dunyosini yaxshilashga qaratilgan keng miqyosdagi samarali tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Biroq, oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilishning samarali texnologiyalarini joriy qilish jarayonida qator konseptual va amaliy muammolar ham kuzatilmoqda. Ular orasida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: bolani ijtimoiy himoya qilish borasida yagona standartlarning mavjud emasligi; bolalarni himoya qilish sohasida davlat tomonidan qabul qilingan majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish tizimining samarador emasligi; ehtiyojmand oilalar va bolalarga yordam ko'rsatish modellarining ishlab chiqilmaganligi; ushbu soha mutaxassislarining, xususan, ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy pedagoglarning yetarli emasligi va b. Shu sababli bugungi kunda dunyoning yetakchi markazlarida oilalar va bolalarni samarali ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquqiy baza shakllangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar o'z ifodasini topgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo'lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikda bolalarning huquq va manfaatlariga, shuningdek, ularning himoyasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Har bir bola olamning bir parchasi, uning qalbi va ongidagi ob-havo butun bashariyat hayotining ob-havosini belgilaydi, bolaning biror millat, mamlakatga mansubligi nuqtayi nazaridan qarasa, bola o'sha millat, o'sha mamlakatning bir parchasidir. Shu boisdan mazkur sohada bir qator islohotlar amalga oshirildi. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni (2017), 2016-yil 14-sentabrdagi Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-406-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi (1998), O'zbekiston Respublikasi bola huquqlari kafolati haqidagi Qonuni (2008), Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to'g'risidagi PF-871-sonli Farmoni (1994), Aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risidagi PF-3017-sonli Farmoni (2002), Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-3864-sonli Farmoni (2007), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qariyalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-237-sonli Qarori (2015), Ayollarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5325-sonli Qarori (2018), Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4782-sonli (2017) qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi (2018) Farmoni kabi me'yoriy hujjatlar mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun institutsional asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Masalan, Harakatlar strate-giyasining to'rtinchi Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks choratadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish belgilangan.

Ma'lumki, bola huquqlari sohasida qonunchilikning asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Unga muvofiq bolada tug'ilishi bilanoq inson va fuqaroning huquq, erkinliklari vujudga keladi hamda ular davlat tomonidan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko'ra farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasida qabul qilgan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ratifikatsiya qilgan eng birinchi xalqaro-huquqiy hujjatlardan hisoblanadi. 1992-yilda mazkur Konvensiyaga qo'shilib, O'zbekiston bola huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha bir qancha xalqaro-huquqiy majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Bundan tashqari, Konvensiya qoidalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Birlashgan

Millatlar tashkilotining bola huquqlari bo'yicha Qo'mitasiga Konvensiyaning bajarilishi to'g'risida doimiy ravishda hisobotlar ham taqdim etib turadi.

Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilganidek, bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj ekanligini e'tirof etilgan. Konvensiyaning 24-moddasida:

chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini pasaytirish;

hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi va ularning sog'ligini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishiga erishish; boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash va yetarli miqdorda

to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo'li bilan hamda atrofmuhitning ifloslanish xavf-xatarini e'tiborga olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish; onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'ligini

saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish; jamiyat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolalarning go'daklar sog'ligi va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va

egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llab-quvvatlash; profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish belgilangan.

Shuningdek, Konvensiyaning 32-moddasida: bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'ligi uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lishiga to'sqinlik qiladigan yoxud sog'ligi, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etadilar – deb ko'rsatilgan. Konvensiyaning **34-moddasida** bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyati belgilan. Buning uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada quyidagi holatlarning oldini olish uchun hamma zarur chora-tadbirlarni ko'rish belgilangan. Jumladan:

- bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash; bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish; bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayorlash maqsadlarida foydalanish ta'qiqlanishi ko'rsatilgan. Shuningdek, Konvensiyaning **37-moddasida** davlatlar tomonidan quyidagilar ta'minlanishi:
- birorta ham bola qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi; birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlatiladi; ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxs ehtiyojlari hisobga olingan holda insoniy muomala va shaxsining ajralmas qismi bo'lgan qadr-qimmatini hurmatlashdan foydalanishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida shunday qilish kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratib saqlanadi hamda alohida holatlarni istisno qilganda, o'z oilasi bilan xat yozish va diydor ko'rishish orqali aloqa bog'lab turish huquqiga egadir; ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan bahramand bo'lish huquqidan, shuningdek, sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqidan hamda ana shunday har qanday protsessual xatti-harakatga nisbatan ular tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi huquqidan foydalanadi – deb ko'rsatilgan. Konvensiyaning **39-moddasida** esa Ishtirokchi-davlatlar beparvolik, ishlatish yoki suiiste'molliklar, qiynashning har qanday ko'rinishlari yoki shafqatsizlik, noinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan boshqa har qanday muomala, jazolash yoki qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga ko'maklashish uchun barcha zarur choratadbirlarni ko'radilar. Bunday tiklanish va o'zini o'nglab olish bolaning sog'ligi, o'zini o'zi hurmatlashi va qadr-qimmatini ta'minlaydigan sharoitlarda amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchiligimizning asoslari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi: birinchidan, ushbu qonunchilik asoslari bolalarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplariga to'la mos keladi. Bunda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada belgilab berilgan qoidalarning milliy qonunchiligimizda to'la o'z aksini topganligini e'tirof etish o'rinlidir; ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab berilgan insonning asosiy huquq va erkinliklari (siyosiy huquq va erkinliklardan tashqari) to'laligicha bolalarga ham tegishli bo'ladi; uchinchidan, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish jarayonida davlat ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek, yetim bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning kafolati sifatida namoyon bo'ladi; to'rtinchidan, davlat bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini doimiy ravishda rag'batlantirib boradi, ularning faoliyatiga ko'maklashadi va har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

Bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarida bola huquqlarining qonuniy kafolatlari alohida belgilab qo'yilganligi e'tiborga molik. Unga ko'ra, har bir bolaga inson huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Xususan, bunday huquq va erkinliklar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi: har bir bolaga yashash huquqi kafolatlanadi. Bunda yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqi hisoblanib, bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir; har bir bola sog'ligini saqlash huquqiga ega. Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'ligini saqlash sharoitlarini yaratadi hamda bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi. Bolaning sog'ligini saqlash huquqi davlat tomonidan malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish, bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasini olib borish, bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash kabi yo'llar bilan ta'minlanadi. Qolgan fikrlarimizni kelgusi tadqiqotlarimizni davom ettiramiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. B. 80.
2. Ўзбекистон Республикасининг Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисидаги қонун- <https://tergov.uz/uz/chilids/zakon-respubliki-uzbekistan-ogarantijah-prav-rebenka>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Етим болалар ва отаонасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги қарори- <https://lex.uz/docs/4199119>
4. БМТ 1989 йил 20 ноябрда 44/25-сессиясида қабул қилган Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 9 декабрдаги 757-ХII-сонли қарори билан ратификация қилинган.
5. I.Negmatov Ijtimoiy ishning etik-professional qadriyatlarini. Samarqand, 2020. B-434.